

“Tasdiqlayman”

“Yo‘l - loyiha byurosi” MCHJ



Bosh muhandisi v.b

B. Usmonov

2022 y.

Texnik topshiriq

4R160 “Urganch sh. - Gurlan sh. - Mang‘it sh. - Turkmaniston Respublikasi chegarasi” avtomobil yo‘lining 45-75 km qismini qayta qurish ob‘yekti Texnik iqtisodiy asosi ob‘yektida o‘lchov va sinov-tadqiqot dala-qidiruv ishlarini bajarishga.

Loyiha-smeta hujjatlar buyurtmachisi: “Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi” DUK.

Ob‘yekt nomi: 4R160 “Urganch sh.-Gurlan sh.-Mang‘it sh.-Turkmaniston Respublikasi chegarasi” avtomobil yo‘lining 45-75 km qismini qayta qurish.

Ob‘yekt joylashgan manzil: Xorazm viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi

1. Avtomobil yo‘lining toifasi: II toifa.
2. Loyihalash bosqichi: Texnik iqtisodiy asos (TIA)
3. Ob‘yektning xarakteristikasi:

-yo‘lning uzunligi - taxminan 30 km.
- qoplama ko‘rinishi - Asfaltbeton.

4. Bajariladigan ishlarning ro‘yxati:

- Harakat jadalligi va tarkibini 3 nazorat nuqtasidan aniqlash (MKN 45-2007 talablari bo‘yicha).
- Nuqsonlarning turlarini va hajmlarini (o‘lchamlarini) ko‘rsatgan holda mavjud qoplamadagi nuqsonlar ro‘yxatini piket holatida aniqlash, ko‘rsatish va iloji bo‘lsa nuqsonlar kelib chiqish sabablarini ko‘rsatish. Fotografik material ilova qilgan holda nuqsonlar dalolatnomasini tuzish.
- Yo‘l qoplamasini qatlamini amaldagi konstruktiv qalinligini aniqlash maqsadida yo‘lning bir ko‘ndalang kesimidan har 250 metr oralig‘idan 2 dona kern namunasini olib aniqlash.
- Yo‘l qoplamasini hamda asos qatlamini konstruksiyaviy qalinligini aniqlash maqsadida yo‘lning mavjud qismida har 500 metr oralig‘idan 2 ta teshik (chuqur) kovlash orqali aniqlash.
- Yo‘l qoplamasi, asos va yo‘l poyi qatlamidan olingan namunalarning fizik-mexanik xossalarini aniqlash uchun mavjud qoplama va asos qismidan har 1000 metr masofada namuna olish, hamda yo‘l poyining 3 nazorat nuqtasidan tuproq namunasini olish.

Loyiha bosh muhandisi _____

B. Xoliqov